

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



# IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in  
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



[publishscience.uz](http://publishscience.uz)



[publish\\_science\\_journal@mail.ru](mailto:publish_science_journal@mail.ru)



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

## O'ZBEK XALQ MAQOLLARINING XORIJD ILMIY O'RGANILISH TAJRIBALARI

Davirova Vazira Quvondiq qizi  
Sobirova Feruza

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, tayanch doktorant.  
Toshkent viloyati O'rta Chirchiq tumani 54-son umumiy o'rta ta'lim maktabi, o'qituvchi.  
e-mail: [davirovav@gmail.com](mailto:davirovav@gmail.com) ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-4758-0625>  
e-mail: [fsobirova0096@gmail.com](mailto:fsobirova0096@gmail.com) ORCID: <https://orcid.org/0009-0000-9512-4628>

### Annotatsiya.

Mazkur maqolada o'zbek xalq maqollarining xorij va qardosh xalqlar paremiologiyasi bilan qiyosiy-tipologik tadqiq etilish tarixi hamda ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan. Tadqiqotda milliy folklor namunalari to'plash va tizimlashtirish bosqichlari, maqollarning tarixiy-genetik ildizlari, milliy kolorit xususiyatlari hamda tillaro ekvivalentlik va transformatsiya qonuniyatlari umumlashtirilgan.

**Kalit so'zlar:** o'zbek folklori, maqol, paremiologiya, qiyosiy-tipologik tahlil, ekvivalentlik, adabiy aloqalar, milliy kolorit, transformatsiya.

## ОПЫТ НАУЧНОГО ИЗУЧЕНИЯ УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ПОСЛОВИЦ ЗА РУБЕЖОМ

Давирова Вазира Кувондик кизи  
Собирова Феруза

Институт узбекского языка, литературы и фольклора Академии наук Республики Узбекистан, базовый докторант.  
Средняя общеобразовательная школа № 54 Среднечирчикского района Ташкентской области, преподаватель.

### Аннотация.

В данной статье освещаются история и научно-теоретические основы сравнительно-типологического исследования узбекских народных пословиц в сопоставлении с зарубежной и родственной паремией. В работе обобщены этапы сбора и систематизации образцов национального фольклора, историко-генетические корни пословиц, особенности национального колорита, а также закономерности межъязыковой эквивалентности и трансформации.

**Ключевые слова:** узбекский фольклор, пословица, паремия, сравнительно-типологический анализ, эквивалентность, литературные связи, национальный колорит, трансформация.

## INTERNATIONAL EXPERIENCE IN THE SCHOLARLY STUDY OF UZBEK FOLK PROVERBS

Davirova Vazira Quvondiq qizi  
Sobirova Feruza

Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Basic Doctoral Student.  
Secondary School No. 54 of O'rta Chirchiq District, Tashkent Region, Teacher.

### Abstract.

This article highlights the history and scientific-theoretical foundations of the comparative-typological study of Uzbek folk proverbs in comparison with foreign and cognate paremiology. The study synthesizes the stages of collecting and systematizing national folklore samples, the historical-genetic roots of proverbs, the characteristics of national color, as well as the regularities of interlingual equivalence and transformation.

**Keywords:** Uzbek folklore, proverb, paremiology, comparative-typological analysis, equivalence, literary relations, national color, transformation.

**Kirish.** O'zbek xalq og'zaki ijodi o'zining boy va serqatlam ma'naviy merosi bilan nafaqat milliy madaniyatimizning ajralmas qismi, balki jahon folklor xazinasining ham muhim tarkibiy bo'lagi hisoblanadi. Uning rang-barang janrlari, badiiy-estetik xususiyatlari, xalqona donishmandlik va hayotiy tajribani mujassam etgan mazmuni dunyo ilmiy jamoatchiligi hamda tadqiqotchilarining doimiy e'tiborini jalb etib kelmoqda. Avvalo, o'zbek xalqining o'ziga xos turmush tarzi, urf-odatlar, madaniyati, tarixiy taraqqiyoti va ma'naviy qadriyatlari mazkur boy folklor

merosining shakllanishi hamda avlodidan avlodga uzatilishida muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

Mazkur ma'naviy merosni o'rganish va dunyo miqyosidagi arenalarda ko'rsatish, ularning xorijiy mamlakatlarda o'rganilishini tekshirish hozirgi folklorshunosligimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

#### **Adabiyotlar tahlili**

O'zbek va rus xalq maqollarini o'zaro qiyosan o'rganishni dastlab XIX asrning so'nggi choragida O'zbekistonda yashab ijod qilgan rus missioner olimi N. P. Ostroumov amalga oshirgan bo'lsa, keyinchalik boshqa tadqiqotchilar tomonidan davom ettirildi. Chunonchi, 1960–1970-yillarda rus paremiologi T. P. Artemenko tadqiqotlarida ko'zga tashlanadi. U o'zining izlanishlarida o'zbek va rus xalq maqollarining folklor va tilshunoslikdagi o'zni hamda xususiyatlarini qiyosan o'rganadi [3. 10]. I. S. Gubenko esa o'zbek va rus xalq maqollari hamda matallarining "Qanotli so'zlar" tipidagi ma'naviy-uslubiy xususiyatlarini o'rganadi [5. 123].

1970-yillardan e'tiboran o'zbek xalq maqollari Yevropa xalq maqollari bilan qiyosan o'rganila boshlandi. Poshali Usmon hamda R. Mamatov ilk bor o'zbek va nemis xalq maqollarini qiyosiy o'rganishga e'tibor qaratdi. Ular nemis xalq maqollarining o'zbekcha muqobillari shakllanish omillari haqida fikr yuritadilar [10. 82]. Sh. Karimov ham o'zbek xalq maqollarining nemischa muqobillarini qiyosan o'rganishga harakat qildi [6. 3]. A. Narziqulov esa o'zbek xalq maqollari, matallari hamda iboralarining ma'no xususiyatlarini fransuz tiliga qiyosan o'rganishga harakat qilgan [9. 45].

Shu davrda o'zbek maqollarini qardosh xalqlar maqollariga qiyosan o'rganish ham rivojlana bordi. Binobarin, o'zbek xalqi bilan doimiy iliq munosabatda bo'lgan qo'shni tojik xalqining milliy maqollari bilan o'zbek xalq maqollarini ilk bor qiyosan tadqiq etgan tojik olimi Y. I. Kalontarov hisoblanadi. U 1969-yilda "Зарбулмасал ва мақолҳои тоҷикӣ ва муқоисаи ўзбекии онҳо" nomli ilmiy risola yaratdi [7. 43]. Olim mazkur risolasida o'zbek va tojik maqollarining shakllanish omillari, ularning o'zaro transformatsiyasi va evolyutsiyasi haqida izlanish olib borgan. Y. I. Kalontarov mazkur risola orqali quyidagi vazifalarni o'z oldiga qo'ygan:

1. o'zaro o'xshash tojik hamda o'zbek xalq maqol va matallarini yig'ish;
2. tojik hamda o'zbek xalq maqol va matallarining ma'nosi, tuzilishi va badiiy xususiyatlarini tahlil qilish;
3. tojik va o'zbek maqollarining o'xshash va farqli jihatlarini qiyosiy o'rganish;
4. ikki xalqning madaniyati, tafakkuri va urf-odatlaridagi yaqinlikni ko'rsatish.

Y. I. Kalontarov o'zbek va tojik maqollarini qiyosiy tadqiq etar ekan, u tojik maqol va matallarini jamlab, ularning har biriga tegishli o'zbek xalq maqollarini aniqlaydi, tojik tilidagi maqolning o'zbek tilidagi muqobilini, tarjimasini yoki ma'no jihatdan o'xshash variantlarini topib taqdim etgan. O'zbek va tojik xalqi etnik jihatdan alohidalikni tashkil etsa ham, turmush tarzi, urf-odati va dunyoqarashi deyarli bir xil. Shu sabab bu ikki xalq qadim-qadimdan bir hududda og'a-inidek yashab keladi. Bundan tashqari, adabiyot va san'at jihatidan ham mushtaraklikka ega bo'lib, ikki xalq madaniyati bir-biri ta'sirida doimiy rivojlanib kelgan. Xuddi shunday o'zbek va tojik xalqlari og'zaki ijodida ham o'zaro o'xshash va mushtarak jihatlar talaygina. Tojik olimi Y. I. Kalontarov o'z risolasida tojik va o'zbek maqollaridagi umumiylik va xoslik jihatlarini tahlil etish orqali tojik va o'zbek xalqlarining yaqin madaniy va tarixiy aloqalarini yorqin ko'rsatib bergan. Risolada xalq maqollari mavzu tartibida joylashtirilgan bo'lib, bu undan tadqiqotchilar foydalanishini ancha qulaylashtiradi.

Tojiki: "To mehnat nakuny, rohat namebiny".

Muqobili o'zbeki: "Mehnat qilsang – rohat ko'rsan" [7. 43].

Y. I. Kalontarov tomonidan amalga oshirilgan mazkur tadqiqot o'zbek va tojik maqolshunosligida yangi sahifa ochib berdi, provardida qiyosiy-tipologik paremiologiya yanada rivojlandi.

#### **Metodologiya**

Maqolada qiyosiy-tipologik, tarixiy-qiyosiy hamda tahliliy metodlardan foydalanildi. O'zbek xalq maqollarining xorijiy tadqiqotlardagi o'zni va ilmiy talqinlari mahalliy hamda xorijiy manbalar asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida paremiologik materiallar qiyosiy tahlil qilinib, turli xalqlar maqollaridagi semantik, lingvokulturologik va badiiy xususiyatlarning umumiy hamda farqli jihatlarini aniqlandi. Olingan natijalar tizimlashtirish va umumlashtirish metodlari asosida xulosalandi.

#### **Natija**

O'zbek va qozoq xalq maqollarining qiyosiy tipologiyasi bilan uzoq yillar shug'ullangan Qozog'iston Milliy fanlar akademiyasi akademigi, filologiya fanlari doktori, professor, xizmat ko'rsatgan fan arbobi Rahmonqul Berdiboyev bo'lib, u Markaziy Osiyo turkiy xalqlari folklori va maqollarini tarixiy-genetik va qiyosiy o'rgangan eng yirik nazariyotchi olim sifatida muhimdir. Olimning 1976-yilda nashr etilgan "Dostiқ kemesinde" nomli risolasida qozoq va o'zbek xalqlarining adabiy va folkloriy aloqalari haqida so'z boradi. Mazkur risolada muallif har ikkala xalq maqollarining qiyosi orqali o'zbek va qozoq xalqining umumiy madaniy makonda rivojlanganini isbotlaydi [4. 145]. R. Berdiboyevning "Гүлстанның бұлбұлдары" ("Guliston bulbullari") risolasida esa o'zbek mumtoz adabiyotining, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodiy merosining Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari aforistikasi va maqollariga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilingan [4. 140]. Olimning yana bir risolasi "Байқалдан Балқанға дейін" ("Baykaldan Balkangacha") deb nomlanib, umumturkiy folkloriga bag'ishlangan fundamental asar hisoblanadi. Akademik mazkur risolada o'zbek va qozoq maqollarining mazmun va struktura jihatdan 80 % gacha bir xil ekanligini genetik ildizlar orqali asoslab beradi. R. Berdiboyev o'zbek va qozoq maqollarini "umumiy paremiologik kontekst" konsepsiyasi asosida tadqiq etishni hamda o'zbek xalq maqollarini umumiy turkiy paremiologiyaning ajralmas va eng boy qismi ekanligini alohida baholaydi. Olim tarixiy-genetik metodga tayangan holda o'zbek va qozoq maqollarining obrazlar tizimidagi mushtarakligini ilmiy asoslab bergan. U o'zbek xalq maqollarini alohida ajratilgan holda emas, balki Markaziy Osiyoning umumiy madaniy kontekstida o'rganish lozimligini aytgan. Akademik R. Berdiboyev rus olimi V. Radlov ilmiy merosining davomchisi

sifatida xalq maqollarini tarixiy-genetik metod asosida tekshirgan va V. Radlov XIX asrda "janubiy qavmlar og'zaki ijodi"dan deb yozib olgan xalq maqollarining XX asrga kelib qanday qilib mustaqil va boy o'zbek xalq maqollari fondiga aylanganini tarixiy bosqichma-bosqich ochib bergan [4. 180].

Xuddi shu yillarda rus paremiologi G. L. Permyakov sharq xalq maqollarini rus xalq maqollari qiyosida tadqiq qildi va mazkur tadqiqot o'laroq olim o'zining "Mataldan ertakkacha" ("От поговорки до сказки") nomli risolasini e'lon qildi [11. 240]. Mazkur risolaning birinchi qismida rus maqol va matallari haqida to'liq ma'lumot berilgan, risolaning ikkinchi qismida rus maqollari va sharq xalq maqollarining tuzilishi hamda mazmunidagi o'xshash va farqli jihatlari taqqoslab o'rganiladi. Jumladan, o'zbek xalq maqollariga ham murojaat qilingan. Bunda olim sharq xalqlariga xos bo'lgan xususiyatlarning maqollarda aks etishi va sharq xalqlari dunyoqarashidagi mushtaraklikni qiyosan o'rganishga harakat qiladi.

Глина не станет фарфором, чужой человек – братом (Sopol chinni bo'lmas, begona ini) [11. 138], Полюбишь работу – и она тебя полюбит (Mehnatni sevsang, mehnat ham seni sevar) [11. 140], Разлучившийся с другом плачет семь лет, расставшийся с родиной плачет всю жизнь (Yoridan ayrilgan yetti yil yig'lar, Elidan ayrilgan o'lguncha yig'lar) [11. 147].

O'zbek maqollarining boshqa til maqollari bilan qiyosan o'rganish ishlari mustaqillik yillarida yanada rivojlandi. Buning bir sababi mustaqil O'zbekistonning jahon ijtimoiy-siyosiy hayotida o'z mavqeyi va o'rniga ega bo'lib kelayotgani bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'zbek fanining endilikda jahon fanlari qatoridan joy olgani bo'ldi.

O'zbek xalqining boy madaniy merosiga bo'lgan qiziqish hamma davrlarda birdek bo'lgan. Xususan, tarixiy ildizlari bir o'zanga borib taqalgan turkiy xalqlar folklorshunosligi o'zbek madaniyati, adabiyoti va folklori bilan doimiy qiziqib kelgan. Turkiya davlati iqtisodiy-siyosiy aloqalar bilan bir qatorda madaniy-adabiy aloqalarni ham jadal yo'lga qo'ygan mamlakatlardan biridir.

Turk xalqi tarixi, turmush tarzi, madaniyati va dunyoqarashi ko'p jihatdan o'zbek xalqi bilan mushtaraklik kasb etadi. Chunki bu xalqlar etnik kelib chiqishi, tili va madaniy jihatdan bir turkiy xalqlar oilasiga mansub bo'lib, ularning folklorida ham umumiyliklar mavjud. Shu bois turk folklorshunoslari doimiy ravishda o'zbek folklori va folklorshunosligiga qiziqib keladi hamda o'zbek folklorshunoslari bilan doimiy hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishgan. O'zbek xalq maqollarini Turkiyada ilmiy o'rgangan Anqara davlat universiteti professori Aynur O'zjan sanaladi. U 1987–1991-yillarda Anqara universitetining Til va tarix fakulteti turk tili va adabiyoti yo'nalishini, 1991–1994-yillarda Ijtimoiy fanlar institutida qadimgi turk tili bo'yicha magistraturani tamomlagan. O'zining boy tarixi, an'analari, milliy urf-odatlarini, xalq og'zaki ijodi namunalari bilan hech kimni befarq qoldirmagan o'zbek xalq og'zaki ijodi Aynur O'zjanni ham o'ziga rom etgan.

#### **Muhokama**

Aynur O'zjan 1996–1997-yillar davomida O'zbekistonda bo'lib, O'zbekiston Milliy universitetida o'z faoliyatini davom ettirib, taniqli o'zbek tilshunos olimi Iristoy Qo'chqortoyev rahbarligida "Kadinlarla ilgili özbek atasözleri" mavzusida tadqiqot olib borgan.

Olima tadqiqotini o'zbek xalq maqollari orasidan ayollar haqidagi o'gitlarni tanlab olib, ularni turk xalq maqollari bilan qiyosan o'rganishga harakat qiladi. Mazkur maqollarni o'rganish orqali o'zbek xalqining ayollarga bo'lgan munosabati va xotinlarning o'zbek jamiyatidagi o'rnini belgilashga, umuman, o'zbek ijtimoiy-madaniy hayotida ayollarning vazifasini aniqlashga urinib ko'radi.

A. O'zjan risolasining birinchi bobi "Kadın ile ilgili özbek atasözleri" – "Ayol haqidagi o'zbek xalq maqollari" [2. 9] deb nomlanadi va o'zbek xalq maqollarining o'ziga xosligi, unda xotin-qizlar obrazining ifodasi va ayollarga munosabat masalasi o'rganiladi. Birinchi bobning o'zi yetti faslga bo'linib, har bir faslda o'zbek ayollariga xos ma'lum bir xususiyat tadqiq etiladi. Olima risolasining ikkinchi bobi "Anne – kaynana – gelin – görümce ve elti ile ilgili özbek atasözleri" [2. 53] (Ona, qaynona, kelin, qaynisingil va ovsin haqidagi o'zbek maqollari) deb nomlanib, asosan yaqin qarindosh ayollar mavzusidagi maqollar turk tilida sharhlanadi.

Tadqiqotning uchinchi bobi "Kiz ile ilgili özbek atasözleri", ya'ni "Qizlar haqidagi o'zbek maqollari" deb ataladi va qizlar bilan bog'liq ibratli maqollar sharhlanadi.

Aynur O'zjan o'zbek xalq maqollari orasidan ayollar haqidagi maqollarni saralab o'rgangan hamda turk tiliga o'girish va tahlil qilishga harakat qilgan. Olima o'zbek maqollarini turk tiliga o'girish jarayonida uch yo'lni tanlagan:

1. o'zbek maqollarining turk tilidagi muqobilini topishga harakat qilgan;
2. o'zbek tiliga mazmunan yaqin keladigan turk maqollarini topishga uringan;
3. o'zbek maqollarini so'zma-so'z tarjima qilgan.

Xalq maqollariga xos bo'lgan asosiy xususiyatlar: mazmundorlik, siqiq shakl, ohangdorlik, ichki qofiya va tuzilish bo'lib, tarjima qilish jarayonida maqollarga xos bu xususiyatlarning barchasini saqlab qolish mushkul. Mabodo, shu xususiyatlarning biri saqlanmasa, maqolning asl mazmuniga putur yetadi. Aynur O'zjan shu sabab tadqiqotida maqollarning asl shaklini saqlagan holda uning tarjimasini baqamti keltiradi. Bu bir jihatdan bir-biriga ancha yaqin bo'lgan turk va o'zbek kitobxonini uchun qiyinchilik tug'dirmaydi. Maqollarning asl va tarjima variantini qiyoslab o'rganish imkonini beradi.

Ozarbayjon va o'zbek xalqi tarixan bir etnik guruhga mansub bo'lib, ko'p jihatdan **bir-biriga** yaqin turadi. Xususan, ularning dunyoqarashi, madaniyati, urf-odatlarida ham o'zaro o'xshashliklar mavjud bo'lib, bu ikki xalq maqollari tarkibida bir-biriga har jihatdan o'xshash maqollarni ko'plab uchratish mumkin. O'zbek va ozar maqollaridagi shakl va qofiya alohida e'tibor qaratgan Ozarbayjon olimi X. B. Mamedov ilk bor ozarbayjon va o'zbek xalq maqollarida uchraydigan "qo'shayarpoq" poetik strukturasi badiiy xususiyatlarini tadqiq etgan va hozirga qadar biror manbada uchramagan "Qo'shayarpoq maqollar" atamasini ilmiy muomalaga kiritgan. Uning ta'kidlashicha:

“Ozarbayjon va o‘zbek xalq maqollarining aksariyati qisqa she’riy namunalar hisoblanib, ularda, shuningdek, folklarning boshqa namunalarida ham qo‘shayarpoq shakli yetarlicha uchraydi. Xususan, har ikkala xalq maqollarida “qo‘shayarpoq” shaklidagi namunalarni ko‘p uchratish mumkin. Masalan, “Baba, baba dedilər, var-yoxunu yedilər” misolida “dedilər” so‘zi “yedilər” so‘zi bilan qofiyalansa, o‘zbek maqolida ham **xuddi** shu kabi “Bir kalla – kalla, ikki kalla – tilla” misolida “kalla” so‘zi “tilla” so‘zi bilan qofiya hosil qiladi. Shubhasiz, bu holat qadimgi ajdodlarimizning tafakkur boyligi, ularning ma’naviy va badiiy didi go‘zalligi, milliy ijtimoiy ong va psixologiyasining chuqurligidan dalolat beradi” [8. 44–53]. Ko‘rinadiki, X. Mamedov ta’kidlagan “qo‘shayarpoq” shakli o‘zbek xalq maqollaridagi ohang va ritmni yuzaga keltiruvchi ichki qofiya bo‘lib, bu turkiy xalqlar she’riyati, qolaversa, paremiologiyasi uchun xos xususiyat. X. Mamedov o‘z tadqiqotida o‘zbek va ozar xalq maqollarining ikki yuzga yaqinini o‘zaro qiyosiy tahlil qiladi.

O‘zbek va qardosh xalqlar maqolshunosligining rivojiga hissa qo‘sha oladigan yana bir muhim tadqiqot turk olimi Erdam Ahmetning “O‘zbek va turk tilidagi maqollar semantikasida ijtimoiy munosabatlarning ifodalanishi” nomli dissertatsiyadir. Tadqiqot ishida E. Ahmet o‘zbek va turk tillaridagi oila, qarindosh-urug‘chilik, qo‘shnichilik, jamiyatdagi turli qatlamlarga aloqador maqollar asosida har ikki xalqning tafakkurida ijtimoiy munosabatlarning lisoniy ifodalanishini ochib berishga harakat qilgan [1. 21]. Dissertant o‘zbek va turk xalq maqollarini o‘rganish jarayonida ikki xalq maqollarida aks etgan oila, qo‘shnichilik, mehmondo‘stlik kabi ijtimoiy munosabatlarning ifodalanishida farqli va o‘ziga xos jihatlarni aniqlashga harakat qilgan.

**Xulosa.** O‘zbek xalq maqollarining xorijda o‘rganilishi va tizimli tadqiq etilishi milliy og‘zaki ijodimiz namunalari umurturkiy hamda jahon paremiologik kontekstining ajralmas, boy tarkibiy qismi ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Bu kabi qiyosiy-tipologik izlanishlar o‘zbek paremiyalarining xalqaro miqyosdagi badiiy-estetik qimmatini belgilashga, transformatsiya va lingvokulturologik xususiyatlarini ochib berishga hamda milliy qadriyatlarimizni dunyo ilmiy hamjamiyatiga kengroq tanitishga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ahmed E. *O‘zbek va turk tillaridagi maqollar semantikasida ijtimoiy munosabatlarning ifodasi*: filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2024. – 21 b.
2. Özcan A. Ö. *Kadınlarla ilgili Özbek atasözleri*. – Ankara: Nisan, 2009. – 9 b.
3. Артеменко Т. П. Пословицы и поговорки в фольклоре и лингвистике // *Программа научно-теоретической конференции Хорезмского государственного педагогического института*. – Ургенч, 1969. – С. 10–11.
4. Бердібаев Р. *Байқалдан Балқанға дейін*. – Алматы: Жазушы, 1969. – 180 б.
5. Губенко И. С. Об одном способе взаимодействия «крылатых заголовков» и текста // *Актуальные проблемы лексикологии*. – Минск, 1970. – С. 62–63.
6. Karimov Sh. *Nemis maqollarining o‘zbekcha muqobillari* // *O‘zbekiston madaniyati*. – Toshkent, 9-sentabr 1977. – B. 3.
7. Kalotarov Ya. I. *Zarbulmasal va maqolhoi tojikii va muqoisai o‘zbekii onho*. – Dushanbe: Donish, 1969. – B. 43.
8. Mammadov X. B. Formulas of Azerbaijani and Uzbek Proverbs and Parables in the Form of “Cross Rhyme” or “Goshayarpag” / “Charpaz Gafiye” // *Uzbekistan: Language and Culture*. – 2022. – Vol. 5. – No. 1. – P. 44–53.
9. Narziqulov A. *Frazeologizmlarning ma’no xususiyatlari* (fransuz va o‘zbek tillari asosida) // *Исследования по русскому и славянскому языкознанию (Труды СамГУ. Вып. № 204)*. – Samarqand, 1971. – B. 45–50.
10. Poshali Usmon, Mamatov R. *Nemis xalq maqollari, matallari va ularning o‘zbekcha muqobillari*. – Samarqand, 1975. – B. 82.
11. Пермяков Г. Л. *От поговорки до сказки*. – М.: Наука, 1970. – С. 240.